

O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONIGA BOĞLIQ QARORLAR VA ISLOHATLAR

Kalmuratov Sansizbay Toktabaevich
Innovatsion texnologiyalar universiteti
 O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i
 qalmuratovsansizbay@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19638601>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi jarayoniga oid qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilayotgan islohatlar tahlil qilinadi. Mehnat migratsiyasi va unga doir muhim qonuniy o'zgarishlar, mamlakatimizda mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha joriy etilgan yangi tizimlar ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekiston hukumati tomonidan xorijga ishlash uchun yuborilgan fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va qaytgan mehnat migrantlarini qayta integratsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan islohatlar muhokama qilinadi. Shuningdek, mehnat migratsiyasiga oid yangi qarorlarning samarasini oshirish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat migratsiyasi, tashqi mehnat migratsiyasi, islohotlar, mehnat munosabatlari, xavfsiz mehnat migratsiyasi, migrantlarning huquqlari, bandlik siyosati, migrantlarni sug'urtalash.

Xalqaro mehnat migratsiyasi, mavsumiy migratsiya Jahonda mehnat munosabatlari rivojlanib bormoqda, davlatlar-aro integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Migratsiya - (lot. migratio - ko'chib o'tish) - individlar yoki ijtimoiy guruhlarining doimiy yashash joylarini o'zgartirish jarayoni bo'lib, u boshqa jo'g'rofiy hudud yoki mamlakatga ko'chib o'tishda ifodalanadi. Mehnat migratsiyasi – bu ish qidirib topish va bandlik bilan bog'liq hudud bo'ylab odamlarning almashinishini o'zida ifodalaydigan migratsiyaning bir turi. Bu mamlakat ichida va shu bilan birga mamlakatlar o'rtasida amalga oshishi mumkin. Mehnat migratsiyasi mamlakat ichida doimiy, ya'ni yashash joyini o'zgartirishi bilan, yoki vaqtincha, ya'ni yashash joyini o'zgartirmasdan amalga oshishini taqozo etadi. Xalqaro mehnat migratsiyasi ham doimiy bo'lishi mumkin, ya'ni doimiy yashash uchun bir davlatdan boshqa davlatga ko'chishi bilan bog'liq. Muddatiga ko'ra cheklangan, kontrakt bo'yicha; mavsumiy migratsiya, chegara oldi ishchilari migratsiyasida mehnat migratsiyasi vaqtincha xarakter kasb etadi ¹.

Hozirgi kunda mehnat migratsiyasiga doir bir qator qarorlar ishlab shiqarilgan va bu qaror-nizomlar amalda o'z natijasini bermoqta. Mamlakatimizda mehnat migratsiyasiga doir islohatlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, mehnat migratsiyasining asosi ishsizlik aktual muommalarning biri bo'lib kelmoqta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2020 yildagi PQ-4829-son. Xavfsiz, tartibli, va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish to'g'risida qarori bu- so'nggi to'rt yil davomida xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy qilindi. Yani bu qarorda,

xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda

— Jamg'arma) tashkil etildi, mehnat migrantlarining hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, ularning oila a'zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy qilindi. Shu bilan birga, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarning reyintegratsiyasini ta'minlash, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish talab etilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlarning faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlamoqchi bo'lgan shaxslarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, fuqarolarning chet elda bo'lish davrida huquqlarini himoya qilish, qaytib kelgan mehnat migrantlarining bandligini ta'minlash, shuningdek, ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-marttagi PQ-149-sonli qarori qabul qilindi. "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" ² s'z etiladi.

Mamlakatimizda joriy etilayotgan xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi doirasida xorijga chiqib ketayotgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o'qitish, xorijda huquq va manfaatlarini himoya qilish, zarur ijtimoiy va axborot-maslahat yordamini ko'rsatish, ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xorijda mehnat migrantlarini huquqiy himoya qilish ko'lamini oshirish, ish joylaridagi muammolarini tizimli ravishda o'rganish va ularni hal qilish bo'yicha zarur amaliy yordam ko'rsatish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ijobiy o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilib borish zaruriyati sezilmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining "Mehnat migrantlariga subsidiya, kompensatsiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i loyihasi e'lon qilindi 3. Ushbu qonun Prezidentning 2024-yil 4-apreldagi "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan, shuningdek xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolariga subsidiya, kompensatsiya ajratish tartibini belgilaydi.

"Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga:

- xorijiy tillar va (yoki) kasb bo'yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun, basharti ular muvaffaqiyatli topshirilganda va sertifikat olinganda — BHMning uch baravarigacha (1 million 20 ming so'mgacha) miqdorda;
- xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishga ishchi vizani rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun — BHMning besh baravarigacha (1,7 million so'm) miqdorda;
- yo'l chiptasini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun — BHMning ikki baravarigacha (680 ming so'mgacha) miqdorda kompensatsiya to'lanadi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oila sifatida e'tirof etilgan yoki "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"dan biriga kiritilgan va

tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarning sog'lig'i va hayoti, shuningdek, boshqa tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha sugari fuqarolarning sog'lig'i va hayoti, shuningdek, boshqa tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotini qoplash to'g'risida jamg'armaga buyurtmanoma kiritadi.

Buyurtmanoma quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

- fuqaro "Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida "xorijda ishga joylashgan shaxs" maqomida bo'lmasa;
- agentlik yoki litsenziyalangan xususiy bandlik agentliklari orqali tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketmagan bo'lsa;
- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oila sifatida e'tirof etilgan yoki "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"dan biriga kiritilgani tasdiqlanmasa;
- sug'urtada taxmin qilinayotgan voqealar tavakkalchiligi to'liq rasmiylashtirilmagan bo'lsa;
- har bir sug'urtalangan fuqaro uchun 12 oylik davr mobaynida bir martadan ortiq murojaat qilingan bo'lsa.

Subsidiya, kompensatsiyalar 2024-yil 1-iyundan boshlab Kambağallikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi.

Kompensatsiyalar olish bo'yicha ariza quyidagi hollarda rad etilishi mumkin: fuqaro "Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida "xorijda ishga joylashgan shaxs" maqomida bo'lmasa;

- agentlik yoki litsenziyalangan xususiy bandlik agentliklari orqali tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketmagan bo'lsa;
- asoslantiruvchi hujjatlar bo'lmasa yoki talabga javob bermasa.

Ariza rad etilgan taqdirda fuqaro ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda qayta murojaat qilishi mumkin.

Ma'lumot uchun, oxirgi ikki yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 70 ming kishi rivojlangan davlatlarga yuborilgan. 2024-yilning yanvar- mart oylarida mehnat migratsiyasidan 58 ming nafar, aprelda 57 ming nafar fuqaro qaytib kelgani ma'lum qilingandi. Yil oxirigacha yana 250-300 ming kishi qaytishi prognoz qilinmoqda. Qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirish yuzasidan topshiriqlar berilgan.

Ózbekiston Respublikasi mehnat bozori statistikasi 2023-yil yanvar-mart oylariga kóra Respublikada tashqarida ishlashga ketganlar 1 793 907 kishini tashkil etadi

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasiga doir Prezident qarorlari va nizomlarning ishlab shiqarilishi bu- mehnat migrantlariga bo'lgan e'tibor va qo'llab quvvatlashning asosiy belgisi. Bu mehnat migratsiyasiga doir Prezident qarorlari va nizomlarning amalda qo'llanishi ma'sul amaldorlarga va har bir mehnat migrantlariga bog'liq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi jarayoniga doir qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilayotgan islohatlar tahlil qilinib, mamlakatda mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi tizimlar haqida so'z yuritilgan. O'zbekiston hukumati tomonidan xorijga ishlash uchun yuborilgan fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va qaytgan mehnat migrantlarini qayta integratsiya

qilish bo'yicha amalga oshirilgan islohatlar bevosita mehnat migratsiyasining yanada samarali va tartibli rivojlanishiga olib kelmoqda.

Maqolada keltirilgan qarorlar va islohotlar mehnat migratsiyasi sohasidagi muhim o'zgarishlarni ko'rsatib beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilgi PQ-4829-sonli qarori mehnat migrantlari bilan aloqalarni yaxshilashga, ularning huquqlarini himoya qilishga va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizimlarni ishlab chiqdi. Shuningdek, mehnat migrantlarini sug'urtalash, ularning oila a'zolarini ipoteka kreditlari bilan ta'minlash va qaytgan migrantlar uchun tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'zgartirishlar amalga oshirildi. Mehnat migratsiyasini tartibga solish, mehnat migrantlarini malaka oshirish va xorijda ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha takomillashtirilgan mexanizmlar hamda yangi qarorlarning amalda qanday ishlashi tahlil qilindi. Prezidentning 2024-yil 4-apreldagi qarori va 2022-yildagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatda mehnat migratsiyasining ijobiy o'zgarishlarini qo'llab-quvvatlashga va mehnat migrantlarini himoya qilishga qaratilgan.

Shuningdek, yangi subsidiya va kompensatsiya tizimi, mehnat migratsiyasiga qatnashayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash uchun joriy etilgan chora-tadbirlar hamda "Xorijda ish" elektron tizimi orqali amalga oshirilayotgan xizmatlar mehnat migrantlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida katta ahamiyatga ega. O'zbekiston fuqarolarining tashqi mehnat migratsiyasiga borishdan oldin va mehnat faoliyatini xorijda amalga oshirgandan so'ng, davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etishning muhimligini ta'kidlaydi. Bularning barchasi O'zbekistonning mehnat migratsiyasi sohasidagi jahon tajribasiga moslashishi, migratsiya jarayonlarini yanada xavfsiz va samarali qilishga yordam beradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston mehnat migratsiyasiga doir amalga oshirilgan islohotlar va qabul qilingan qarorlar mamlakatdagi mehnat migrantlarining ijtimoiy, iqtisodiy holatini yaxshilashga, ularning huquqlarini himoya qilishga, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, tashkilotlar va har bir mehnat migranti o'rtasida o'zaro hamkorlik va tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xolmurotov.S.E, Shoyusupova.N.T.“Mehnatsotsiologiyasi” (O'quv qo'llanma) T.2016 TDIU. – 8 b.
2. U. Sharipbayeva. A bo'yicha. "Mexnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi". Qo'llanma. 2007 yil.
3. Q.Abdurahmonov, Sh.Xolmóminov, A.Xayitov, A.Akbarov. "Mexnat iqtisodiyoti va sociologiyasi" (oquv qollanma). T-2013 TDIU
4. <http://lex.uz//docs/-5893253>
5. <https://mehnat.uz/oz>
6. <https://daryo.uz/2024/06/09/ozbekistonlik-mehnat-migrantlariga-subsidiya-kompensatsiya-ajratish-tartibi>
7. <https://demografiya.uz/uz/wiki/mehnat-migratsiyasi-2/>
8. Q.Inamov, N.Moydinova “sotsiologiya fanidan qisqacha izoxli lugat” Namangan-2014.-25 b.